



MAQSADLI JAMG'ARMALARNING DAVLAT IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Eshdavlatov Humoyun Nusratulla o'g'li

*O'zbekiston Davlat Iqtisodiyot universiteti, Magistratura va kechki ta'lim
fakulteti, Davlat moliyasi va xalqaro moliya yo'nalishi, 2-kurs magistranti.*

Davlat budjet tizimi iqtisodiyotni samarali boshqarish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va strategik maqsadlarni ro'yobga chiqarishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tizimning tarkibida alohida ahamiyat kasb etuvchi bo'g'inlardan biri davlat maqsadli jamg'armalaridir. Maqsadli jamg'armalar budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan shakllantiriladi va aniq maqsadlarga yo'naltiriladi. Ular iqtisodiy o'sish, ijtimoiy ta'minot, infratuzilma rivoji va muhim davlat dasturlarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida davlat maqsadli jamg'armalarining samaradorligini oshirish, ularni boshqarishning shaffofligini ta'minlash va xalq farovonligini yaxshilash masalalari dolzarb bo'lib turibdi. Ushbu jamg'armalar orqali davlat nafaqat moliyaviy resurslarni boshqaradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda uzoq muddatli strategiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlatning iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarga ta'sir etish qurollaridan biri davlat maqsadli fondlaridir. Davlat byudjetdan tashqari maqsadli fondlar orqali jamiyat talablariga mos ravishda pul mablag'larini ijtimoiy va iqtisodiy sohalar o'rtasida qayta taqsimlanish jarayonini tartibga solib turishi, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarining rivojlanishini rag'batlantirishi, ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, davlat maqsadli jamg'armalari iqtisodiyotni va



ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishda muhim vosita - dastak bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqishda"¹ davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat maqsadli fondlari ham davlat byudjeti bilan birgalikda alohida o'rin egallaydi. Davlat maqsadli fondlari davlatning alohid ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etadi va mamlakat byudjet tizimi bilan byudjet-moliya qonunchiligi bilan tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi.

O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ-4938-son "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq buyuraman:

Davlat maqsadli jamg'armalarining hududiy bo'limlari tomonidan hududiy bo'limlar xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi tuziladi va tasdiqlanadi hamda davlat maqsadli jamg'armalari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Davlat maqsadli jamg'armalari tomonidan ularning xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi tuziladi va tasdiqlanadi hamda davlat maqsadli



jamg'armalarini taqsimlovchi organlar yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (bundan buyon matnda Moliya vazirligi deb yuritiladi) tomonidan ro'yxatga olinadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlar smetasi (bundan buyon matnda xarajatlar smetasi deb yuritiladi) bir moliya yili muddatiga tuziladi va amal qiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasini tuzishda mehnatga haq to'lash miqdorlari va shartlari, ayrim tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadigan narx va tariflar:

davlat maqsadli jamg'armalari (moliya yili mobaynida yangidan tuzilayotgan davlat maqsadli jamg'armalaridan tashqari) bo'yicha — mazkur smetalar tuzilayotgan moliya yilining 1-yanvarida amalda bo'lgan shartlarda;

moliya yili mobaynida yangidan tuzilgan davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha — mazkur jamg'arma faoliyat ko'rsatishi boshlangan oyning 1-sanasi holatiga ko'ra hisobga olinadi.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi jarayonida davlat maqsadli jamg'armalarining qo'shimcha xarajatlari yuzaga kelganda, ularning xarajatlar smetasiga budjet to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari hamda mazkur Nizomda belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritiladi.

Xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi so'mda tuziladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari va ularning hududiy bo'limlari tomonidan "UzASBO" dasturiy majmuasi (bundan buyon matnda dasturiy majmua deb



yuritiladi) orqali davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi, shuningdek ularga o'zgartirishlarni ko'rib chiqish va ro'yxatdan o'tkazish uchun Moliya vazirligining Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga (bundan buyon matnda DMBAT deb yuritiladi) jo'natiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari va ular hududiy bo'limlarining xarajatlar smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi bosh buxgalter (uning o'rinbosari) va moliya-iqtisod bo'linmasi boshlig'i (shtat jadvaliga muvofiq moliya-iqtisod masalalari bo'yicha mutaxassisi) yoxud uning vazifalari yuklatilgan xodim tomonidan imzolanadi hamda rahbar yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan tasdiqlanadi va har biriga xos "QR" kodlar qo'yilib, DMBAT tizimida ro'yxatga olinadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarining oylar va choraklar kesimidagi xarajatlari ularning daromadlaridan oshib ketishiga, agar mazkur xarajatlar davlat maqsadli jamg'armalarining yil boshidagi qoldiq mablag'lari bilan qoplanmasa, yo'l qo'yilmaydi.

Davlat maqsadli jamg'armalarining davriy moliyaviy hisoboti quyidagi hisobot turlarini o'z ichiga oladi:

davlat maqsadli jamg'armalarining moliyaviy hisobotlari;

davlat maqsadli jamg'armalari budjetlariga daromadlarning tushumlari to'g'risidagi hisobot;

davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot.

Moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlari salbiy qoldiqqa ega bo'lsa, u holda hisobotlarda ushbu ko'rsatkichlar "minus" belgisi bilan aks ettiriladi.



Moliyaviy hisobotlarda ko'rsatiladigan axborotlar tushunarli, sodda va to'liq bo'lishi lozim.¹

Har bir mamlakat iqtisodiy barqarorlikka erishish va xalq farovonligini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarini aniq va samarali boshqarishga intiladi. Ushbu jarayonda davlat budjeti tizimi markaziy o'rin egallaydi. Davlat budjetining bir qismi bo'lmish maqsadli jamg'armalar esa muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'larni jamlash va taqsimlash vositasi sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Maqsadli jamg'armalar davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlarini moliyalashtirish uchun yaratilgan mexanizmlardir va ular ijtimoiy himoya, infratuzilma rivoji, ekologik muhofaza kabi sohalarda samarali natijalarni ta'minlaydi.

O'zbekiston davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha oddiy statistikasi

Jamg'arma nomi	2022- yil (trln so'm)	2023- yil (trln so'm)	2024- yil (trln so'm)
Pensiya jamg'armasi	35	38	40
Ekologiya jamg'armasi	3	4,5	5,5
Yo'l jamg'armasi	10	11,5	13
Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi	8	9	10

1- Jadval ²

O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalarining faoliyati so'nggi yillarda yanada takomillashmoqda. Pensiya jamg'armasi orqali

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda PQ-4938-son "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

² Muallifni o'zi shakllantirdi



fuqarolarning keksalik davrida iqtisodiy himoyasi ta'minlanmoqda. Yo'l jamg'armasi esa infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Ekologiya jamg'armasi atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan mablag'larni taqsimlash orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga harakat qilmoqda. Bularning barchasi davlat siyosatining uzoq muddatli strategic maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ba'zan mablag'larning maqsadsiz sarflanishi yoki boshqaruvning murakkabligi jamg'armalarning asl maqsadlariga erishishni qiyinlashtiradi. Xorijiy tajribaga nazar tashlasak, Germaniya, AQSh va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda davlat maqsadli jamg'armalarining boshqaruv tizimi yuqori shaffoflik va samaradorlik bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlarda mablag'larning aniq monitoringi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va samaradorlik ko'rsatkichlari orqali moliyaviy resurslar O'zbekiston sharoitida ham bu tajribalarni tatbiq etish imkoniyatlari mavjud. Maqsadli jamg'armalarni boshqarishda shaffoflikni oshirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini joriy qilish va zamonaviy texnologiyalar asosida monitoring tizimini takomillashtirish orqali ularning faoliyatini yanada samarali tashkil etish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirishda jamg'armalarning barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida byudjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik subyektlari va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko'payishi bilan ortib bormoqda. Lekin bu davrda jamiyatning ko'ptomonlama ehtiyojlari ham kamaygani yo'q, aksincha, davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanishi obyektiv zaruriyat bo'lgan, mohiyat jihatidan yangi-yangi tadbirlar, loyihalar, yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularni to'liq



hajmda moliyalashtirish yanada ko'proq mablag'larni jalb qilishni taqozo etadi. Lekin daromadlarni muttasil oshirib borish (xususan, soliqlarni oshirish orqali) imkoniyati amaldagi soliq qonunchiligi hamda soliq to'lovchilarning iqtisodiy imkoniyatlari bilan chegaralangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2022-yilgi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida". – Xalq so'zi gazetasi, 2023-yil.
3. Musgrave R.A., Musgrave P.B. "Public Finance in Theory and Practice" . – McGraw-Hill, New York, 2004.
4. Stiglitz J. "Economics of the Public Sector". – W.W. Norton & Company, 2012.
5. OECD. "Public Financial Management: Improving Efficiency and Accountability" . – OECD Publishing, 2020.
6. Mirkomilov X. "Davlat moliyaviy resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish" . – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
7. Qo'chqorov S. "Budget mablag'laridan samarali foydalanishda maqsadli jamg'armalarning o'rni". – Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2021-yil, №2.